

## RENDERING OF PHILOSOPHICAL TERMS IN EXPLANATORY DICTIONARIES OF THE RUSSIAN LANGUAGE

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14173495>

**Karimov Kamoldin Nasriddinovich**

*Andijan State Institute of Foreign Languages, Department of Theoretical Aspects of  
English king230680@gmail.com*

### **Abstract**

This article discusses the use of philosophical terms in explanatory dictionaries of the Russian language and gives examples from isolated dictionaries of the Russian language

### **Keywords**

linguistics, philosophical terms, language corpus, linguistic support

## RUS TILI IZOHLI LUG'ATLARIDA FALSAFAGA OID TERMINLARNING BERILISHI

**Karimov Kamoldin Nasriddinovich**

*Andijon davlat chet tillari instituti, Ingliz tili nazariy aspektlari kafedrasini  
[king230680@gmail.com](mailto:king230680@gmail.com)*

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada rus tilidagi izohli lug'atlarda falsafiy terminlarning berilishi to'g'risida fikr yuritilgan bo'lib, rus tili izohli lug'atlaridan misollar keltirilgan holda ifodalab berilgan.

### **Kalit so'zlar**

tilshunoslik, falsafiy terminlar, til korpusi, lingvistik ta'minot

Terminologik tushunchalarning shakllanish va rivojlanish tarixini tadqiq etish terminning qo'llanishi, ma'nosi, izohi, nutqda ishlatilishini o'rganishni talab qiladi.

Rossiyada falsafaning paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanish davri XVIII-XIX asrlarga to'g'ri keladi. Bu davrda fan mohiyati, maqsad va vazifasi aniqlandi, falsafiy terminologiyaning asosi yaratildi. Mazkur ishlar natijasi o'laroq, falsafa mustaqil fan sifatida shakllandi, bu yo'nalishda keyingi tadqiqotlar uchun yo'l ochib berdi.

Rus tili rus ma'naviyatining og'zaki tizimi sifatida o'zining yakuniy ehtiyojlarini o'zida mujassam etadi, zarur yadrosini tashkil etadi, ijodiy salohiyatini ifodalaydi. Tildan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha kuzatishlar ma'naviy madaniyatning ayrim hodisalarining milliy o'ziga xoslik manbasini ko'rishga, xalq madaniyatining asl xususiyatlari mujassam bo'lgan haqiqiy shakllarni o'rganishga imkon beradi.

O'rganilayotgan muammoning dolzarbligi falsafiy kategoriyalar nazariyasi uchun til ma'lumotlaridan foydalanish, ularning mazmuni va kognitiv ma'nosini ochib berish mavzusi fanda kam to'xtalganligi bilan asoslanadi. Tilda so'zning semantik nuqtai nazarini chuqurlashtirish mentalitetni milliy o'ziga xoslik vositasi va ona tilining toifalari hamda shakllariga asoslangan dunyoning an'anaviy manzarasini yaratish usuli sifatida o'rganishga imkon beradi.

Bu holda ma'no hosil qiluvchi kuch sub'yekt, shaxsdir, chunki u so'zlar, jumlar, matnlarning ma'nolarini yaratuvchisi va shuning uchun ob'yektiv voqelikda ularga mos keladigan hamma narsa ma'nolarining bunyodkoridir. Shuningdek, insonning falsafiy, sotsiologik va psixologik qarashlari "lingvistik shaxs" ma'nosida qo'llaniladi, bu esa ma'lum bir til (ona tilida)da so'zlashuvchining asosiy milliy-madaniy prototipi sifatida tushunilishi mumkin. Lug'atda aks ettirilgan mafkuraviy munosabat, qiymat ustuvorliklari va xulq-atvor reaksiyalariga asoslangan holda, asosan, leksik tizimda o'rnashadi.

Atamalarni yaratishning asosiy manbai bo'lgan tabiiy tildan foydalanib, inson muqarrar ravishda ma'lum bir tahlil, sintez, voqelik hodisalarini umumlashtirish tizimidan, shuningdek, boshqa aqliy operatsiyalardan foydalanadi. I.A.Boduen de Kurtenening fikricha, bilimlarning uchinchi turi "lingvistik bilim"ga asoslangan holda amalga oshiriladi".[1:25] Bu tur ijtimoiy mavqei va ta'lim darajasidan qat'i nazar, rus madaniyati egalarining nolingvistik tasavvurlarini ifodalaydi.

Terminga semantik tabiatga ega bo'lgan so'z sifatida qiziqish so'nggi o'n yilliklarda terminologik tadqiqotlarning umumiy yo'nalishini o'zgartirishga sabab bo'ldi. Natijada terminlar tipologiyasida termini tarkibiy tizim tahlili nuqtai nazaridan ularning mazmunini tashkil etuvchi narsalardan ajratib bo'lmaydi, degan barqaror fikr paydo bo'ldi. Ushbu pozitsiyada kognitiv fan atamaning semantikasiga yaqinlashadi. Bu nazariya ba'zi lingvistik hodisalar ular aks ettiradigan ekstralingvistik haqiqat bilan qanday bog'liqligi va ularning ushbu haqiqatni bilishdagi roli qanday, degan savolga qaratilgan. Shu bilan birga, so'zning ma'nosi endi shunchaki tildagi ba'zi elementlarning ichki aloqalari tarmog'i sifatida emas, balki dunyoni bilish jarayoni, insonning aqliy faoliyati va uning bilim qobiliyatlari bilan bog'liq bo'ladi.

Shunday qilib, atamalarni yaratish inson nominativ faoliyatining ajralmas qismi bo'lib, qo'shimcha lingvistik va nolingvistik haqiqatni o'ziga xos tarzda talqin qiladi. U mavjud til tajribasi asosida kerakli ma'lumotlarni maqsadli izlash, uni tilning "axborot-terminologik" sohasiga kiritish sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Shu munosabat bilan "lisoniy hodisalar tuzilish, me'yor va foydalanish omillarini hisobga olgan holda ularning nutqiy o'zaro ta'sirida ko'rib chiqiladi"[2:10].

Rus tilidagi izohli lug'atlar uzoq tarixga ega bo'lib, ilk izohli lug'atlar XIII-XIV asrlarga oid qo'lyozma lug'atlar sifatida yaratilgan. Ko'pincha ular diniy mazmundagi kitoblarga ilova qilingan va unda eski slavyan, tarjima qilinmagan grek va lotin so'zlari izohlangan. Shu o'rinda "Словарь Лаврентия Зизания"

[3:109] ("Lavrentiy Zizaniyning lug'ati") (1596 yil) va Pamva Berindaning "Лексикон словеноросский. Имен толкование" ("Slovenorosskiy leksikoni. Ismlar izohi") (1627 yil) lug'atlarini qayd etish maqsadga muvofiq.

XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida xorijiy tillardan o'zlashtirilgan so'zlar bilan bir qatorda ruscha leksemalarni ham izohlaydigan birinchi lug'atlar paydo bo'ldi.

Bular 1789-1794 yillarda o'sha davrning eng taniqli olimlari va yozuvchilari tomonidan tuzilgan 6 jildli "Словарь Академии Российской" ("Rossiya Akademiyasining lug'ati") va 1847 yilda yaratilgan 4 jildli "Словарь церковнославянского и русского языка" [4:12] ("Chyerkovslavyan va rus tilining lug'ati") lug'atlaridir.

Izohli lug'atlar orasida V.I.Dalning 1863-1866 yillarda nashr etilgan va 200 ming so'zni o'z ichiga olgan 4 jildli "Толковый словарь живого великорусского языка" [5:10] ("Buyuk rus tilining izohli lug'ati") alohida o'rin tutadi. Lug'atning o'ziga xosligi shundaki, u nome'yoriy: lug'at nafaqat adabiy tilning so'z boyligini, balki sheva, dialekt va kasb-hunar so'zlarini ham o'z ichiga oladi. So'zlar alifbo tartibida joylashtirilgan. Izohlar asosan, sinonimik qatorlar orqali, illyustratsiyalar esa maqol, matal, topishmoq kabi xalq og'zaki ijodi asarlari vositasida berilgan.

1891 yilda Fanlar Akademiyasi "Словарь русского языка" [6:25] ("Rus tili lug'ati")ning akademik nashrini boshlaydi. Lug'atning ilk nashrlari Ya.G.Grot tomonidan tahrir qilingan bo'lib, "Grot lug'ati" deb nomlangan.

1935-1940 yillarda D.N.Ushakov tahriri ostida 4 jildli "Толковый словарь русского языка" [7:0] ("Rus tilining izohli lug'ati") (taxminan 85000 so'z) nashr etildi. Bu birinchi sovet me'yoriy lug'ati bo'lib, unda nafaqat so'zlar izohi, balki ularning to'g'ri talaffuzi, etimologiyasi, grammatik va stilistik xususiyatlari haqida ham ma'lumot berilgan. So'zlarning joylashuvi alifbo tartibida, talqinlari qisqa va aniq, illyustratsiyalar, asosan, badiiy va jurnalistik adabiyotlardan olingan. Lug'atdagi so'zlarning frazeologik birliklar tarkibida qo'llanishi beriladi va izohlanadi.

1949 yilda S.I.Ojegovning "Словарь русского языка" ("Rus tilining lug'ati") nashr etildi. Birinchi nashrda 50100 so'z kiritilgan. Lug'at bir jildli bo'lgani uchun undagi ma'nolarning izohlari qisqa, tasviriy material hajmi kichik va asosan, muallif tomonidan keltirilgan kichik jumalardan iborat. So'zlar "yarim uyadosh" so'zlar usulida joylashtirilgan: asosiy so'zlar alifbo tartibida, hosilalar maqola ichida berilgan. Bu, rus tilining eng mashhur va qulay lug'ati bo'lib, 1990 yilga kelib u 22-marta nashrdan chiqqan. 1989 yilda jiddiy qayta ko'rib to'ldirilgan, lug'atning 21-nashri chop etilgan. 9-nashrdan boshlab 1972 yilda nashr etilgan barcha nashrlar lug'at muharriri N.Yu.Shvedova tomonidan tayyorlangan. 1991 yilda lug'at SSSR Fanlar Akademiyasining Pushkin mukofotiga sazovor bo'lgan.

Lug'atdagi har bir so'z ma'nolar tizimi, semantik tuzilishi tekshirildi. Oldingi nashrlarda so'z ma'nolari juda umumlashtirilgan shaklda taqdim etilgan. Ushbu tamoyil saqlanib qolgan, ammo juda ko'p hollarda so'zning tavsifida unga tegishli

bo'lgan zamonaviy ma'nolar mavjud bo'lib, ular avvalgi nashrlarda u yoki bu sabablarga ko'ra ko'rsatilmagan.

Shu bilan birga, so'zlarning semantik xususiyatlarini aniqroq va to'liqroq bayon etish maqsad qilindi. Ushbu vazifaga muvofiq ko'plab lug'at yozuvlari qayta qurildi: avvalgi nashrlarda qayd etilmagan so'zlarning ma'nolariga ko'rsatmalar kiritildi, zamonaviy til uchun umumiste'moldagi ma'no-munosabatlari ko'rsatildi, ba'zi hollarda eskirgan ma'nolar yo'q qilindi.

Barcha so'zlar ma'nolarining talqinlari tekshirilgan va ko'p hollarda to'ldirilgan. Muharrir lug'atning sodda va ixcham uslubini saqlashga harakat qilgan. Aksariyat hollarda talqinning o'zgarishi aniqroq tahrirning talabi bilan emas, balki so'zning o'zida sodir bo'lgan o'zgarishlar bilan bog'liq edi.

Lug'atga kiritilgan barcha asosiy maxsus terminlar tekshirildi. Izohlarning to'g'riligini tekshirish, fan-texnika, harbiy, san'at, siyosat, falsafa, huquq, qishloq xo'jaligi, sanoat kabi bir qator sohalarga tegishli atamalarining zamonaviy ma'nolarini aniqlash uchun nashriyot soha mutaxassislarini jalb qildi. Zamonaviy tilda saqlanib qolgan cherkov atamalarining talqinlari ham tekshirildi.

Lug'atning illyustrativ (tasviriy) qismi tub o'zgarishlarga uchramadi. Biroq misollar yanada jonli va zamonaviyroq, so'zning ma'nosi bilan bir vaqtda uning semantik hamda sintaktik muvofiqligi ko'rsatilgan misollar bilan almashtirildi. Oldingi nashrlar bilan taqqoslaganda oxirgi nashrdagi so'zlar ko'pincha qisqa iboralar bilan, ba'zan esa minimal dialogik birliklar bilan boyitildi.

Ta'kidlash kerakki, mazkur lug'atda turli sohaga tegishli terminlar bilan bir qatorda falsafiy terminlar ham o'z o'rniga ega. Bu falsafa ilmining insoniyat hayotidagi o'rni bilan bevosita aloqadordir. Zero, falsafa (yunon. "donolikni sevish") - borliqning umumiy belgilari, tushunchalari va tamoyillari bo'lib, insonning mavjudligi, uning atrofidagi dunyo munosabatlari haqida bilishning maxsus shakli va bilim tizimi.[8:0]

Tadqiqot uchun S.I.Ojegovning "Словарь русского языка" lug'atidan falsafiy terminlar yig'ildi. Falsafiy terminlarni lingvistik nuqtai nazardan tahlil qilish va ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish uchun ularni statistik metod orqali tavsiflash maqsadga muvofiq. Chunki falsafiy terminlarning izohli lug'atda berilishi statistikasi mazkur sohaga oid jarayonlarni, tushuncha va tamoyillarni belgilashga hamda boyitishga yordam beradi.

Lug'atda falsafiy terminlar jami 83 tani tashkil etadi.

So'z turkumlari bo'yicha tasnifi quyidagicha:

Ot so'z turkumiga oid falsafiy terminlar: 32 ta.

Sifat so'z turkumiga oid falsafiy terminlar: 3 ta.

Son so'z turkumiga oid falsafiy terminlar: mavjud emas.

Olmosh so'z turkumiga oid falsafiy terminlar: mavjud emas.

Ravish so'z turkumiga oid falsafiy terminlar: mavjud emas.

Fe'l so'z turkumiga oid falsafiy terminlar: 1 ta.

Lug'atda falsafiy terminlarning aksariyati ot so'z turkumiga mansub. Sifat turkumiga tegishli terminlar ham mavjud. Fe'l so'z turkumiga esa atigi 1 ta termin kiradi. Bu ham fe'lning infinitiv (noaniq) shakliga oiddir. Son, olmosh, ravish turkumlariga oid birorta falsafiy termin uchramaydi.

Rus tili izohli lug'atlarining aksariyatida (shu jumladan, S.I.Ojegov lug'atida ham) falsafiy terminlar quyidagi izohlar orqali berilgan:

- 1) "В философии" (фалсафада) so'zi bilan;
- 2) "Философское направление" (falsafiy oqim) birikmasi orqali;
- 3) "Философское учение" (falsafiy bilim) birligi bilan.

Jumladan:

**МЕХАНИЦИЗМ**, -а, м. Философское направление, сводящее все многообразие мира к механическому движению однородных частиц материи, а сложные закономерности развития - к законам механики. II прил. механистический, -ая, -ое. [9:299]

(**MECHANITSIZM** - dunyoning barcha xilma-xilligini materiyaning bir xil zarralarining mexanik harakatiga va rivojlanishning murakkab qonuniyatlarini mexanika qonunlariga kamaytiradigan falsafiy oqim).

**ОНТОЛОГИЯ**, -и, ж. Философское учение об общих категориях и закономерностях бытия, существующее в единстве с теорией познания и логикой. II прил. онтологический, -ая, -ое.

(**ONTOLOGIYA** - bilim va mantiq nazariyasi bilan birlikda mavjud bo'lgan umumiy kategoriyalar va qonunlar haqidagi falsafiy ta'limot. Sifat, onkologik).

**СУБЪЕКТ**, -а, -м. 1. В философии: познающий и действующий человек, существо, противостоящее внешнему миру как объекту познания. 2. Человек как носитель каких-н. свойств (книжн.). С. права (физическое или юридическое лицо как носитель юридических прав и обязанностей; спец.). 3. Вообще о человеке (обычно отрицательно характеризуемом) (разг.). Подозрительный, странный с. Болезненный с. 4. В логике: предмет суждения. 5. В грамматике: семантическая категория со значением производителя действия или носителя состояния. II прил. субъектный, -ая, -ое (к 1, 4 и 5 знач.).

(**SUB'YEKT** 1. Falsafada: idrok etuvchi va harakat qiluvchi shaxs, bilish ob'yekti sifatida tashqi dunyoga qarshi bo'lgan shaxs. 2. Inson ba'zi xususiyatlar (kitobiy) tashuvchisi sifatida. Huquqlar sub'yekti (yuridik yoki jismoniy shaxs qonuniy huquq va majburiyatlarning tashuvchisi sifatida; maxsus.). 3. Umuman, bir odamhaqida (odatda salbiy xarakterlanadigan) (so'zlashuv.). Shubhali, g'alati s. 4. Mantiqda: hukm mavzusi. 5. Grammatikada: harakatlanuvchi chiqaruvchi yoki holat tashuvchisi ma'nosiga ega semantik kategoriya. Sifat. - sub'yektiv). [9:377]



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Бодуэн де Куртене Избранные труды по общему языкознанию. - М., 1963.
2. Комиссаров В.Н. Лингвистика перевода. - М., 1980.
3. [http://xn--g1arj2c.xn--p1ai/publ/zagadki\\_russkogo\\_jazyka/osnovnye\\_tolkovye\\_slovari/5-1-0-109](http://xn--g1arj2c.xn--p1ai/publ/zagadki_russkogo_jazyka/osnovnye_tolkovye_slovari/5-1-0-109)
4. Словарь церковнославянского и русского языка. - СПб.: Императорская Академия Наук, 1847. - Т. I: А-Ж.
5. Толковый словарь живого великорусского языка. В 4 т. / В. И. Даль. - М.: ГИИиНС, 1955.
6. **Словарь русского языка** / Под ред. Я.К.Грота, А.А.Шахматова и др. СПб., 1895.
7. <https://slovar.cc/rus/ushakov/402333.html>
8. Философия Архивная копия от 18 декабря 2010 на Wayback Machine // Кругосвет
9. Ожегов С.И. Толковый словарь русского языка /Под ред.члена-корреспондента АН СССР Н.Ю.Шведовой/ М: «Русский язык» - 1989 г. - С.299.